



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№12



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 2025-yil, dekabr.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoirazimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Abdulkarimova Dinara Rustamxanovna

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Abdulkarimova Dinara Rustamkhanovna

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

RAQAMLI TRANSFORMATSIYA DAVRIDA TIJORAT BANKLARI LIKVIDLILIK XAVFINI BOSHQARISHI.....	44
Baxromov Nodirjon Muxammadamin o'g'li	
TURIZM XIZMATLAR BOZORI ISTE'MOLCHILARINI SEGMENTLASH USULI ASOSIDA DIVERSIFIKATSIYA KONSEPSIYASINI ISHLAB CHIQISH.....	48
Maxmudova Aziza Pirmamatovna	
"INNOVATSION AGROTEKNOLOGIYALAR VA "YASHIL IQTISODIYOT" TAMOIYILLARI ASOSIDA G'ALLA YETISHTIRISH BARQARORLIGINI BAHOLASH.....	53
Turayeva Gulizahro	
АНАЛИЗ ЦЕНОБРАЗОВАНИЯ НА ЗЕРНОВЫЕ ПРОДУКТЫ ПО ДАННЫМ МАРКЕТИНГОВЫМ ИСЛЕДОВАНИЯМ (НА ПРИМЕРЕ НАМАНГАНСКОЙ ОБЛАСТИ).....	57
Баҳриддинов Жаҳонгирбек Равшанжон ўғли	
KICHIK BIZNES RIVOJINI TA'MINLASHDA BOZOR INFRATUZILMALARINING AHAMIYATI.....	62
G'aniyev Botir Baxtiyorovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
KICHIK SANOAT ZONALARI FAOLIYATINI SAMARALI BOSHQARISH METODOLOGIYASI VA YO'LLARI.....	67
Shodmonqulov Kamoliddin Murodillaevich	
INNOVASION FAOLIYAT XARAJATLARINING BUXGALTERIYA HISOB VA AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH.....	73
Mustafoev Akbar Mustafo o'g'li	
MAHSULOT DIVERSIFIKATSIYASI VA LOGISTIKA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA EKSPORT POTENSIALINI OSHIRISH YO'LLARI.....	78
Maxkamov Ibrayim, Jo'raboyeva Shohida Kamoliddin qizi	
REKLAMA SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI MARKETING STRATEGIYALARI ROLI.....	83
Abduxalilova Laylo To'xtasinovna, Raxmonqulova Shahrizoda	
SIRKULAR IQTISODIYOTDA YOPIQ SIKL NAZARIYASINING ROLI.....	87
Sodikov Zokir Rustamovich	
YASHIL TEKNOLOGIYALARNI JORIY ETISHDA MOLIYAVIY RAG'BATLAR VA ULARNING NATIJALARI.....	92
Axmadjonova Gulmira Xabibulla qizi	
MAMLAKAT IQTISODIYOTI RIVOJLANISHIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING ROLI.....	97
G'aniyev Baydulla Toshmurodovich	
АНАЛИЗ ПОДХОДОВ ЦЕНТРАЛЬНЫХ БАНКОВ К РЕГУЛИРОВАНИЮ ИННОВАЦИОННЫХ БАНКОВСКИХ ПРОДУКТОВ: СРАВНЕНИЕ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНОЙ ПРАКТИКИ.....	101
Даулетиярова Шахло	
СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ЦЕННЫХ БУМАГ УЗБЕКИСТАНА.....	109
Кадилова Хадича Тураевна	
XORIY MAMLAKATLARINING IQTISODIYOTNI UGLERODSIZLASHTIRISH STRATEGIYALARI: O'ZBEKISTON UCHUN TAKLIFLAR.....	115
D.X. Pulatov, F.E.Shamsiyev	
O'ZBEKISTONDA ISLOM MOLIYASI: MUAMMOLAR VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI.....	125
Sattorov Ixtiyor Ochilovich, Karimov Shohruh Yo'ldoshali o'g'li	
HISOB SIYOSATI TARKIBIY TUZILISHI MASALALARI.....	133
Botirova Raximaxon Abdujabbarovna	
QURILISHDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNING MOLIYAVIY TAHLILI.....	136
Musayeva Shoirazimovna	



KICHIK SANOAT ZONALARINI RIVOJLANTIRISH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI OSHIRISH.....	144
Axmedov Oybek Turgunpulatovich	
O'ZBEKISTON SUG'URTA BOZORI PORTFELI TAHLILI.....	149
Madraximov Ilxom Kamilovich	
FOYDA SOLIG'INING O'ZIGA XOS MUAMMOLI JIHATLARI.....	154
Zaripov Xusan Baxodirovich	
AGRAR SEKTORNI INNOVATSION MODERNIZATSIYA QILISHDA INVESTITSIYA OQIMLARINI BOSHQARISH MODELLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	159
Xamrayev Quvvat Iskandarovich	
OLIY TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING TADQIQODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	163
Jalilov Jamshid G'anijonovich, Safarov Zavqiddin Zokir o'g'li	
MINTAQA SANOAT TARMOG'I RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI.....	168
Xayitboev Abror Quvondiqovich	
РОЛЬ СМЕШАННОГО ФИНАНСИРОВАНИЯ (BLENDED FINANCE) В ПОВЫШЕНИИ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТИ КОММУНАЛЬНЫХ УСЛУГ: УРОКИ РАЗВИВАЮЩИХСЯ СТРАН.....	174
Гулмаматова Дурдона Шерали кизи	
KORXONALARDA STRATEGIK BOSHQARUV.....	180
Musayeva Dilnoza Dilshatovna	
BANK TIZIMIDA MARKETING AHAMIYATI VA BANK MARKETINGI.....	184
Usubjonov Zaxriddin Vasliddin o'g'li	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN XORJIY KREDIT MABLAG'LARINI JALB KILISH HUQUQIY JIHATLARI.....	189
Qulliyev Anvar Zayniddinovich	
TIJORAT BANKLARINI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA CHAKANA XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	194
Alimov Umid O'ktambayevich	
MAHSULOTLARNING RAQAMLI PASPORTI TIZIMINI JORIY ETISH OMILLARI VA TO'SIQLARI.....	200
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
KORXONALARDA FOYDA VA ZARARLARNI TAHLIL QILISHDA INNOVATSION METODLAR AHAMIYATI.....	207
Ernazarov Ortiq Eshnazarovich, Farog'at Xo'jabekova	
ВЛИЯНИЕ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ БЛАГОСОСТОЯНИЕ, А ТАКЖЕ НОВЫЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ДОХОДОВ НАСЕЛЕНИЯ.....	212
Останов Эгамберди	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA INNOVASION TEXNOLOGIYALARNI INTEGRATSIYALASH: MOHIYATI VA RIVOJLANISH IMKONIYATLARI.....	218
Xakimova Xulkar Xamidovna	
QORAQALPOG'ISTON VA XORAZM OZIQ-OVQAT SANOATINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI HAMDA UNI YANADA RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	224
Tleuov Niyetulla Raxmanovich	
OILAVIY KORXONALARNING IQTISODIY TIZIMDAGI O'RNI.....	230
Shadiyeva Gulnora Mardiyevna, Rustamova Zarina Rustamovna	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA O'ZBEKISTON OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATINI MODELLASHTIRISH VA BOSHQARISH MEXANIZMLARI.....	234
Sadikov Shoxrux Shuxratovich	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASI KORXONALARINING RAQOBATBARDOSHLIKNI OSHIRISHDA RAQAMLI XIZMATLARNING AHAMIYATI.....	238
Asenbaeva Aydaygul Edenbaevna	
BARQARORLIK VA YASHIL MENEJMENT: ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR VA AMALIY AHAMIYATI.....	242
Djalilova Dilbar Abdikarim qizi	



HUDUDLARNING IQTISODIY SALOHİYATINI INNAVATSION-INVESTITSION BOSHQARISH STRATEGIYASI VA MEXANIZMI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA)	247
Maqsudova Malohatxon Maqsudovna, Yaxshimuratov Maqsadbek Narimon o'g'li	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT BYUDJETINI 2026-YILGI SOLIQ SIYOSATINING TAHLILI VA XALQARO SOLISHTIRMA YONDASHUVI	251
Abdullayev Zafarbek Safibullayevich	
O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI	256
Mamataliyeva Dilnoza Raxmonovna	
TRANSFORMATSIYALASHUV SHAROITIDA INVESTITSİYALAR SHAKLLANISHI VA ULARNI SAMARALI BOSHQARISH YO'NALISHLARI	259
To'rayev Jasurali To'rayevich	
O'ZBEKISTONDA SAVDO TASHKILOTLARINING FAOLIYATI VA RIVOJLANISH HOLATI	264
B. Sulaymonov	
NAMANGAN VILOYATIDA "YASHIL IQTISODIYOT" MODELIGA O'TISH JARAYONIDA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING IQTISODIY FAOLLIGI	270
Xonto'rayev Obbosxon Kamolxon o'g'li	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	274
Xoshimov Pazliddin Zuxurovich	
KICHIK BIZNES ORQALI ISH O'RINLARINI YARATISH STRATEGIYALARI: NAMANGAN VILOYATI MISOLIDA	278
Ergasheva Nigora Abdigapparovna	
MAMLAKATIMIZDA QO'SHILGAN QIYMAT SOLIG'INING IJTIMOIIY-IQTISODIY AHAMIYATI	283
Quryozov Sardorbek Sharifboevich	
РАЗРАБОТКА И ПРИОРИТИЗАЦИЯ КЛЮЧЕВЫХ ИНДИКАТОРОВ ЭФФЕКТИВНОСТИ ДЛЯ ОБЩЕНАЦИОНАЛЬНОЙ ПАНЕЛИ МОНИТОРИНГА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ БОЛЬНИЦ: ЭКСПЕРТНАЯ ОЦЕНКА СО СТОРОНЫ РУКОВОДИТЕЛЕЙ МЕДУЧРЕЖДЕНИЙ	290
Шухратов Мамуржон Шухрат угли	
MAHALLIY DAVLAT HOKIMIYAT ORGANLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA BOSHQARISHGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR	297
Nurmurodov Zafarjon Nurmurod o'g'li	
BANK TIZIMINING BARQAROR MOLIIYAVIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASH VOSITALARI	303
Sadikov Iskandar Gayratovich	
ЗЕЛЕНОЕ ФИНАНСИРОВАНИЕ В ЗЕЛЕНОЙ ЭКОНОМИКЕ: ТЕОРИЯ И ПРАКТИКА	308
Халиков С. Х.	
HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA KICHIK BIZNESNI ROLI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH CHORALARI	313
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОЦЕСС СТАНОВЛЕНИЯ ФАРМАЦЕВТИЧЕСКОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ	317
Мажидова Фарангиз Фуркатзода	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDAGI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIDA ISHLAB CHIQRISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	321
Isakov Oybek Jamoliddinovich	
NORASMIY KOOPERATSIYA MUNOSABATLARINING FERMER XO'JALIKLARI YETISHTIRGAN MAHSULOT MIQDORIGA TA'SIRINI BAHOLASH	325
Ismoilov Azamat	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA FOIZ RISKINI BOSHQARISH AMALIYOTI	332
Seitnazarov Daniyar Baxadirovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SUT VA SUT MAHSULOTLARINI QAYTA ISHLOVCHI KORXONALAR FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH	341
Normuradov Nurbek Sunatilloevich	
"AYOL RAHBARLAR: RAHBARLIK SALOHİYATI VA ISH JOYIDA TENGLIK" FRANSIYA DAVLATI TAJRIBASI ASOSIDA	346
Abduraxmonova Feruzabonu	



QISHLOQ XO'JALIGIDAGI KLASSTERLARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI EKONOMETRIK MODELLASHTIRISH.....	352
Dildora Yuldasheva	
TIJORAT BANKLARINING DEPOZIT BAZASINING YETARLILIGINI TA'MINLASH YO'LLARI	359
I.J. Isakov	
OLIY TA'LIM SIFATINI OSHIRISH VA IQTISODIY DIAGNOSTIKA O'TKAZISHNING XORIJ TAJRIBASI	363
Xo'jaxonov Ma'rufxon Xamidxonovich, Axmedov Oybek Turg'unpulatovich	
INKLYUZIV TA'LIMNI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI YECHISH YO'LLARI.....	369
Egamberdiyeva Dilorom Botir qizi, Pulatova Moxira Baxtiyorovna	
"KREATIV IQTISODIYOT" HAMDA "TURIZM" TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	374
Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li	



“KREATIV IQTISODIYOT” HAMDA “TURIZM” TUSHUNCHALARINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Abdurasulov Shovqiddin Erkin o'g'li

“Ipak Yo'li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadqiqotchisi,

E-mail: shovqiddinabdurasulov0@gmail.com,

ORCID: 0009-0002-1376-6542

Annotatsiya. Ushbu maqolada “kreativ iqtisodiyot” va “turizm” tushunchalari zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinib, jahon iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari, innovatsion g'oyalar hamda madaniy resurslardan samarali foydalanish orqali shakllanayotgan kreativ iqtisodiyotning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Shuningdek, turizm sohasining iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy funksiyalari, uning kreativ iqtisodiyot bilan o'zaro integratsiyalashuv mexanizmlari ilmiy asosda tadqiq etiladi. Tadqiqot natijalari kreativ iqtisodiyot va turizmning o'zaro uyg'unlashuvi raqobatbardosh iqtisodiy modelni shakllantirishda muhim omil ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kreativ iqtisodiyot, innovatsiya, raqamli texnologiyalar, intellektual resurslar, tizimli yondashuv, iqtisodiy yondashuv, iqtisodiy tizim.

Abstract. This article analyzes the concepts of “creative economy” and “tourism” through modern scientific and theoretical approaches. It highlights global economic development trends, the essence of the creative economy shaped by the effective use of innovative ideas and cultural resources, and examines the economic, social and cultural functions of the tourism sector. The study also explores the mechanisms of interaction and integration between tourism and the creative economy. The findings demonstrate that the synergy of these sectors contributes significantly to building a competitive and sustainable economic model.

Key words: creative economy, innovation, digital technologies, intellectual resources, systemic approach, economic approach, economic system.

Аннотация. В статье анализируются понятия «креативная экономика» и «туризм» на основе современных научно-теоретических подходов. Раскрываются тенденции мирового экономического развития, сущность креативной экономики, формирующейся благодаря эффективному использованию инновационных идей и культурных ресурсов. Кроме того, исследуются экономические, социальные и культурные функции сферы туризма, а также механизмы её интеграции с креативной экономикой. Результаты исследования показывают, что взаимосвязь этих двух сфер способствует формированию конкурентоспособной и устойчивой экономической модели.

Ключевые слова: креативная экономика, инновации, цифровые технологии, интеллектуальные ресурсы, системный подход, экономический подход, экономическая система.

KIRISH

So'nggi yillarda jahon iqtisodiyotida kreativ iqtisodiyotga bo'lgan e'tibor sezilarli darajada ortib bormoqda. Ushbu konsepsiya nafaqat iqtisodiy o'sishning yangi drayveri sifatida, balki madaniy va ijtimoiy taraqqiyotning muhim omili sifatida ham keng e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, turizm sohasida kreativ yondashuvlarning qo'llanishi turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish hamda xizmatlar sifatini oshirishda katta ahamiyat kasb etmoqda.

Zamonaviy global iqtisodiy jarayonlar sharoitida innovatsion yondashuvlar, intellektual salohiyat va madaniy kapitalga asoslangan iqtisodiy faoliyat turlari tobora ustuvor yo'nalish sifatida shakllanmoqda. Shular qatorida kreativ iqtisodiyot so'nggi yillarda iqtisodiy o'sishning yangi harakatlantiruvchi kuchi sifatida e'tirof etilib, ko'plab davlatlar milliy strategiyalarida ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Kreativ g'oyalar, zamonaviy texnologiyalar, san'at va madaniy merosdan samarali foydalanish iqtisodiy tizimlarning raqobatbardoshligini oshirishga sezilarli hissa qo'shmoqda.

Turizm sohasi ham dunyo iqtisodiyotida yuqori sur'atlar bilan rivojlanayotgan strategik tarmoqlardan biri hisoblanadi. Turizmning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy samaralari mamlakatlarning xalqaro maydondagi



nufuziga, investitsiya oqimlarining ortishiga hamda hududiy rivojlanish jarayonlariga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ayniqsa, madaniy meros, ijodiy faoliyat va innovatsion xizmatlarga asoslangan kreativ turizm yo'nalishining shakllanishi kreativ iqtisodiyot va turizm o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yanada mustahkamlamoqda.

Mazkur maqolada "kreativ iqtisodiyot" va "turizm" tushunchalarining ilmiy-nazariy asoslari tahlil qilinib, ularning o'zaro integratsiyalashuv jarayonlari, iqtisodiy rivojlanishdagi o'zni hamda zamonaviy metodologik yondashuvlari ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ushbu ikki sohaning ustuvor jihatlari va ular taqdim etayotgan strategik imkoniyatlarni yanada chuqurroq yoritishga xizmat qiladi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kreativ iqtisodiyot va turizmning o'zaro integratsiyasiga doir ilmiy izlanishlar so'nggi yillarda sezilarli kengayib, ushbu yo'nalish global iqtisodiy rivojlanishning muhim strategik omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. J. Howkins (2001-yil) kreativ iqtisodiyotning nazariy asoslarini ishlab chiqib, uni "g'oyalardan qiymat yaratishga qaratilgan tizim" sifatida talqin qilgan. R. Florida (2002-yil) esa "kreativ sinf" konsepsiyasini ilgari surib, ijodkor inson kapitalining hududiy iqtisodiy o'sishga ta'sirini ilmiy asosda yoritgan. UNCTAD (2008–2010-yillar) va UNESCO hisobotlarida kreativ iqtisodiyot madaniy meros, innovatsiya va raqamli texnologiyalar bilan uzviy bog'langan ko'p komponentli iqtisodiy tizim sifatida baholanadi.

Turizm sohasi bo'yicha ilmiy manbalarda V. I. Azarning turizmni yirik iqtisodiy tizim sifatida izohlashi, shuningdek N. I. Kabushkinning turizmni ijtimoiy-madaniy munosabatlar majmuasi sifatida talqin qilishi keng qo'llanadi. O'zbekistonda esa I. S. Tuxliyev, B. X. Turaev, B. Sh. Safarov va M. T. Alimova tadqiqotlarida turizmning iqtisodiy mexanizmlari, hududiy rivojlanishdagi o'zni hamda kreativ komponentlarning amaliy ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Ushbu ilmiy yondashuvlar kreativ iqtisodiyot va turizm o'rtasidagi integratsion imkoniyatlarni kompleks baholash uchun mustahkam metodologik asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda turizm faoliyatini diversifikatsiya qilishga oid nazariy bilimlarning shakllanish xususiyatlari mahalliy aholining ishtirokini ta'minlash nuqtai nazaridan kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Metodologik asos sifatida iqtisodiy-ijtimoiy tahlil, geografik tahlil, tizimli tahlil va qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot jarayonida kreativ iqtisodiyot va turizm o'rtasidagi o'zaro ta'sirni baholash maqsadida kontent-tahlil hamda konseptual tahlil yondashuvlari qo'llandi. Xalqaro manbalar, qonunchilik hujjatlari va nazariy modellarning qiyosiy tahlili orqali kreativ sektorning turizm infratuzilmasiga ta'siri aniqlanib, asosiy omillar tizimli guruhlariga ajratildi. Shuningdek, kreativ turizmning shakllanish jarayoni, hududiy klasterlar modeli va uning mahalliy iqtisodiyotga ko'rsatadigan multiplikativ ta'sirini baholashda induktiv-uslubiy yondashuvdan samarali foydalanildi.

Mazkur metodologik yondashuv mavzuning ilmiy-nazariy asoslarini chuqur yoritish, kreativ iqtisodiyot va turizm integratsiyasining mexanizmlarini aniq baholash hamda tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini ta'minlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

"Kreativ iqtisodiyot" atamasi ilk bor 2000-yili Jon Xokins tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Muallif konsepsiyasiga ko'ra, kreativ iqtisodiyot avvalo muvaffaqiyatli rivojlanayotgan kreativ biznes faoliyatida o'z aksini topadi. Xokinsning ta'kidlashicha, kreativ iqtisodiyotning o'ziga xos jihati iqtisodiy tizimning rivojlanishi va takomillashuviga ijodiy yondashuv bilan chambarchas bog'langan maxsus ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tizimida namoyon bo'ladi. Ushbu yondashuv, o'z navbatida, postindustrial iqtisodiyot sharoitida ijodiy va intellektual resurslardan samarali foydalanishga asoslangan yangi kreativ sektorning shakllanishi va barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Kreativ iqtisodiyot tushunchasi keng ommalashuvi 2001-yilda Buyuk Britaniyada e'lon qilingan Creative Industries Mapping Document orqali yuzaga kelgan. Mazkur hujjatda kreativ sohalar axborot, ijodkorlik va madaniyatga asoslangan iqtisodiy faoliyat turlari sifatida talqin etilib, ushbu jarayonlarda ishlab chiqarishning intellektual mulkka tayanganligi alohida ta'kidlanadi.

J. Xokins¹ (2001-yil) o'zining "The Creative Economy: How People Make Money from Ideas" kitobida kreativ iqtisodiyotni "ideyalar asosida daromad keltiradigan faoliyatlar" deb ta'riflaydi.

J. Xokinsning fikricha, ijod insonlarni ajratadigan omil hisoblanadi, biroq bu ajralish ijodiy qobiliyatning o'zi emas, balki uni bozorda tijoratbop mahsulot ko'rinishida namoyon etish salohiyati bilan bog'liq. U kreativ sohalarni 15 yo'nalish bo'yicha tasniflab, ularni umumiy tizimga keltirgan. Bu klassifikatsiya hozirgi kunda turli

¹ Howkins, J. (2001). The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. Penguin.



mamlakatlarda, jumladan rivojlanayotgan va rivojlangan davlatlarda, iqtisodiy va ijtimoiy qiymatlarni aniqlashda e'tirof etilgan universal mezonlardan biri sifatida faol qo'llanilmoqda.

Richard Florida² (2002-yil) "The Rise of the Creative Class" asarida "kreativ sinf"ni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida ta'riflaydi. Richard Florida 2002-yilda chop etilgan mashhur "The Rise of the Creative Class" asarida kreativ sinfni 21-asr iqtisodiy o'sishining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida ko'radi. Uning tadqiqotlarida ijodiy shaxslar uchun qulay muhit — ya'ni erkinlik, madaniy xilma-xillik, tahammullilik va innovatsiyani qo'llab-quvvatlash — iqtisodiy rivojlanish uchun zaruriy sharoit sifatida belgilanadi. Shuningdek, uning fikricha, kreativ sinf to'plangan shahar va hududlar tezroq rivojlanadi.

UNCTAD³ va UNESCO hisobotlarida (2008-2010-yillar) kreativ iqtisodiyot madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligini namoyon etadigan tizim sifatida ko'rsatiladi. UNCTAD va UNESCO hisobotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativ iqtisodiyot nafaqat iqtisodiy o'sish manbai, balki madaniy, ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarni birlashtiruvchi murakkab tizim sifatida shakllangan. Ushbu yondashuv kreativ iqtisodiyotni uchta o'zaro bog'liq tarkibiy element asosida baholash imkonini beradi:

1. Madaniy jihatdan, kreativ iqtisodiyot milliy an'analar, san'at, hunarmandchilik va madaniy merosni saqlash va ommalashtirishga xizmat qiladi.

2. Iqtisodiy jihatdan, intellektual mehnat, innovatsiya va raqamli texnologiyalar orqali yangi qiymat va eksportbop mahsulotlar yaratiladi.

3. Ijtimoiy jihatdan, kreativ iqtisodiyot yangi ish o'rinlari yaratish, ta'lim va kasbiy malaka o'sishiga yordam berish, ijtimoiy tenglik va inklyuziv rivojlanishni ta'minlashda muhim o'rin tutadi.

Bunga ko'ra, kreativ iqtisodiyot bu — o'zgaruvchan, innovatsion va barqaror rivojlanishga asoslangan tizimli yondashuv bo'lib, u jamiyatning turli sohalarini o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi va postindustrial jamiyat sharoitida global raqobatbardoshlikni oshiradi.

S.K.Novikova "Креативная экономика как драйвер роста: мировой и российский опыт" nomli maqolasida "kreativ iqtisodiyot — bu postindustrial mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining hozirgi kundagi eng ilg'or shakli bo'lib, u mehnat va kapital kabi asosiy ishlab chiqarish omillarining intellektual tarkibiy qismi ustuvorligiga asoslanadi"⁴ degan fikrlarni ilgari suradi. Muallif kreativ iqtisodiyotni zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning ilg'or modeli sifatida baholaydi. Bu yondashuvda, intellektual mehnat va bilimlar — iqtisodiy o'sishning asosiy manbai sifatida belgilangan, ishlab chiqarishning an'anaviy omillari (mehnat va kapital) — kreativ tarkib bilan boyitilishi ta'kidlangan, kreativ va innovatsion sohalaridagi ixtisoslashuv — yangi ish o'rinlari va iqtisodiy dinamikani ta'minlovchi asos sifatida ko'rilgan, global aloqa va internet muhiti — ideyalar va bilimlar ayirboshlash bozori sifatida ko'rsatilgan hamda inson kapitaliga investitsiya — barqaror kreativ iqtisodiyot uchun zarur infratuzilma va kadr salohiyatining asosi deb baholangan.

Muallif fikrida kreativ iqtisodiyot — bu intellektual resurslarga asoslangan iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya va ijodiy faoliyatni iqtisodiy qadrga aylantirish jarayoni hamda zamonaviy jamiyatning global, raqamlashgan va bilimga asoslangan modeli sifatida e'tirof etadi.

A.Stepanov o'z tadqiqotlarida "iqtisodiyotdagi kreativ echimlar — bu ijodiy, noan'anaviy va ko'pincha nusxa olib bo'lmaydigan yondashuvlar asosida boshqaruv qarorlarini qabul qilish natijasidir. Iqtisodiyotdagi kreativ echimlar, avvalo, ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda yuqori samaradorlik va ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning yuqori natijadorligida namoyon bo'ladi"⁵ degan tushunchalarni keltiradi. Stepanov Aleksandr Annayarovich va Savina Margarita Vitalevna — "Kreativ iqtisodiyot" tushunchasi va uning rivojlanish xususiyatlari bo'yicha olib borgan tadqiqotlari asosida quyidagi asosiy fikrlarni ilgari surgan:

intellektual va ijodiy resurslarga asoslangan iqtisodiy tizim bo'lib, jamiyatning yangi ijtimoiy-iqtisodiy modellarini shakllantiradi;

ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning noan'anaviy, innovatsion echimlar bilan rivojlanishini ta'minlaydi;

kreativ shaxs — bu yangi bilim, ko'nikma va strategiyalarni mustaqil ravishda yarata oladigan, original, standartdan tashqari echimlarni topa oladigan shaxs;

kreativlik — muammolarni ijodiy hal qilish qobiliyati, standart bo'lmagan fikr yuritish;

kreativ kadrlar — yuqori darajada bilimli, kreativ fikrlaydigan, mustaqil echim topa oladigan, samarali qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim;

kreativ iqtisodiyotdagi tashkilotlar noaniqlik va krizis sharoitida yangi innovatsion boshqaruv metodlarini o'zlashtirishi zarur. Shuningdek, boshqaruv kadrlarida kreativ fikrlash, yuqori kommunikativlik, masala echish qobiliyati bo'lishi kerak.

² Florida, R. (2002). The Rise of the Creative Class. Basic Books.

³ UNCTAD. (2008, 2010). Creative Economy Reports.

⁴ С.К.Новикова. Креативная экономика как драйвер роста: мировой и российский опыт. Новые технологии, 2019, 2(48)

⁵ Степанов Александр Аннаярович и др. Креативная экономика: сущность и проблемы развития. Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес» 2023 г.



O'zbekiston Respublikasining "Kreativ iqtisodiyot to'g'risida"gi Qonunida "kreativ iqtisodiyot – ijodiyot, intellektual qobiliyat, shuningdek, innovatsiyalarga hamda texnologiyalarga asoslangan inson salohiyati natijasida iqtisodiy qimmatga ega bo'lgan tovarlarni (ishlarni, xizmatlarni) yaratishga qaratilgan iqtisodiyot tarmog'idir"⁶ deb belgilab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi yangi tahrirda qabul qilingan Qonunida turizm tushunchasiga quyidagi tarzda ta'rif berilgan: "Jismoniy shaxsning vaqtincha bo'lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat bilan shug'ullanmagan holda doimiy yashash joyidan jo'nab ketishi (sayohat qilishi)"⁷. Qonunda turizmga berilgan ta'rifda turizm faoliyatining asosiy huquqiy va iqtisodiy chegaralari aniq belgilangan. Qonundagi ta'rif turizmni, mehnat emas, vaqtinchalik va tijoratdan xoli sayohat sifatida belgilaydi, jismoniy shaxsning shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan faoliyat deb tan oladi va turistik xizmatlar bozoridagi huquqiy munosabatlarni aniqlash uchun asos bo'ladi. Ushbu ta'rif xalqaro standartlarga mos va ilmiy jihatdan to'liq sharhlangan bo'lib, turizm faoliyatini huquqiy va iqtisodiy tartibga solishda muhim manba hisoblanadi.

Hozirgi paytda turizm ta'rifiga turli xil yondashuvlar mavjud bo'lib, jumladan V.I.Azar bu tushunchani "Turizmga alohida bir davlat milliy xo'jaligi chegaralarida yoki jahon xo'jaligi miqyosidagi muayyan unsurlar o'rtasidagi turli aloqalari mavjud bo'lgan yirik iqtisodiy tizim sifatida qarash lozim"⁸ deb ta'riflaydi. Azar turizmni alohida sektor sifatida emas, balki yirik iqtisodiy tizim sifatida baholaydi. V.I.Azar turizmga, faqat iste'molchi nuqtai nazaridan emas, balki yirik iqtisodiy tizim sifatida yondashadi. Ushbu tizim milliy va xalqaro darajadagi iqtisodiy, xizmat ko'rsatuvchi va ijtimoiy unsurlar o'rtasidagi bog'liqlik asosida shakllanadi. Turizm kompleks iqtisodiy mexanizm sifatida, mamlakat iqtisodiyotining qator tarmoqlariga ta'sir qiluvchi strategik soha sifatida e'tirof etiladi.

N.I.Kabushkin ham turizmni "insonning sayohat davomida yuzaga keladigan munosabatlar majmui va o'zaro aloqa hamda xodisalar butunligi"⁹ sifatida ta'riflab, yuqorida keltirilgan fikrga yaqin ta'rif beradi. Kabushkin turizmni faqat harakat, sayohat yoki xizmatlar to'plami deb emas, balki insonlar o'rtasida shakllanadigan ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy munosabatlar majmui sifatida ta'riflaydi. N.I.Kabushkin turizmni, insonning sayohat davomida kirishadigan munosabatlar va xodisalar tizimi sifatida baholaydi. U turizm – bu faqat geografik harakat emas, balki ijtimoiy, madaniy va shaxsiy munosabatlar jarayoni ekanligini ta'kidlaydi. Uning yondashuvi turizmni shaxsning tajriba, muloqot va rivojlanish maydoni sifatida ko'radi.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasini innovatsion rivojlantirish ilmiy maktabining asoschisi I.S.Tuxliev o'z tadqiqot ishlarida "Turizm bu turistlar tomonidan amalga oshiriluvchi, aniq belgilangan turistik maqsadlarga ega ommaviy sayohatlar turi bo'lib, turistning faoliyati va bunday sayohatlarni uyushtirish va amalga oshirish bo'yicha maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlardan iborat. Bunday maxsus xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar faoliyati avvalambor turistik firmalar, mehmonxonalar va shu xizmatlar bilan bog'liq bo'lgan turli xil boshqa tarmoqlar tomonidan amalga oshiriladi"¹⁰ deya e'tirof etadi. Muallif ta'rifining boshida turizm, aniq maqsadli, turistlar tomonidan amalga oshiriladigan va ommaviy harakat shakli sifatida ko'rsatiladi. Ya'ni, bu faqat bir shaxsning shaxsiy sayohati emas, balki turistik faoliyatning tashkil etilgan va yo'naltirilgan shakli ekanligini ifodalaydi.

I.S. Tuxliev turizmga, maqsadli, ommaviy, tashkil etilgan sayohatlar tizimi sifatida, turistik faoliyat va uni qo'llab-quvvatlovchi xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning kompleks tizimi sifatida hamda turizmning infratuzilmaviy, iqtisodiy va tashkilotchilik mexanizmlariga asoslangan soha sifatida yondashadi. Bu ta'rif, turizmni nafaqat inson harakati, balki bozor munosabatlari, xizmat ko'rsatish sifati va innovatsion infratuzilma bilan bog'liq iqtisodiy tizim sifatida tushunishga yordam beradi.

B.X.Turaev "Organizatsionno-ekonomicheskie mexanizmy regionalnogo turizma" nomli monografiyasida turizm tushunchasini bizning mamla-katimizda anchadan buyon sport va sog'liqni mustahkamlash tushunchasi bilan birga idrok qilingani, ya'ni turizmni daromad keltiruvchi iqtisodiyotning tarmog'i sifatida qaralmaganligini va bugungi sharoitda turizm nafaqat milliy iqtisodiyotning to'laqonli tarmoqlararo majmuasi bo'lishi lozim, balki ijtimoiy yo'naltirilgan bozor iqtisodiyotining salmoqli element-laridan biri bo'lishi kerak"¹¹ deb hisoblaydi.

B.Sh.Safarov nomzodlik dissertatsiyasida hozirgi paytda turizmga uch hildagi umumiy ta'rif berilmoqda, degan fikrni keltiradi. Birinchisi, tor ma'nodagi ta'rif bo'lib, unga binoan bu tushuncha turistik korxonalar faoliyati bilan chegaralanadi. Ikkinchisi, bir yoqlama iste'molchiga qaratil-gan bo'lib, bu ta'rifga asosan turizm faoliyati

6 O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 03.10.2024 yildagi O'RQ-970-son <https://lex.uz/uz/docs/-7129258>

7 O'zbekiston Respublikasining "turizm to'g'risida"gi qonun. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.08.2019 yildagi PF-5781-son <https://lex.uz/uz/docs/-4474527?ONDATE=20.01.2024&ONDATE2=20.06.2023&action=compare>

8 Азар В.И., Туманов С.Ю. Экономика туристского рынка. - М.: ИПКГ, 1998. – 239 с.

9 Кабушкин Н.И. Менеджмент туризма: Учебник. 4е изд., стереотип. Мн.: Новое знание, 2004. – 409 с.

10 I.S.Tuxliev va b. Turiza: nazariya va amaliyot. Darslik. T.: fan va texnologiyalar 2021 y.

11 Тураев Б.Х. Организационно-экономические механизмы регионального туризма.-Т.:Фан АНРУз.2009.- С7.




doimiy istiqomat qilish joyidan tashqarida va ishlab chiqarish tashvishlaridan xoli holatda xizmat va tovarlarni iste'mol qilish jarayoni sifatida tushuniladi. Uchinchisiga ko'ra esa, turizm tushunchasi jamiyatda insonlarning istiqomat qilish joyidan tashqarida bo'sh vaqtdan foydalanishi va buning uchun zarur bo'lgan xizmat va tovarlar turlarini qayta ishlash shartlari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar majmuasini ifodalaydi¹².

M.T.Alimovanning doktorlik dissertatsiyasida "Turizm – bu element-lari o'zaro polierarxik aloqalar va munosabatlar tizimi orqali bog'lan-gan, pirovard natijalarga erishishda bevosita tashrif buyuruvchilarning ishtiroki bilan tavsiflanadigan, tarmoqlararo majmuaning ko'p qirrali funksional tuzilmasi negizida shakllanadigan hamda tashqi muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega ochiq murakkab ijtimoiy-iqtisodiy tizimdir"¹³ - degan fikr berilgan.

Bizningcha, turizm — bu insonning doimiy yashash va mehnat faoliyatiga bog'liq bo'lmagan holda, muayyan muddatga bir hududdan (tuman, shahar, mamlakat) boshqa hududga vaqtincha harakatlanishi va u erdagi rekreatsion, madaniy-ma'rifiy, biznes, davolanish, ilmiy yoki shaxsiy maqsadlarda ishtirok etishi bilan tavsiflanadigan ijtimoiy-iqtisodiy faoliyat turidir. Ushbu jarayonda xizmatlar to'plami turizm bozorida iqtisodiy tovar sifatida realizatsiya qilinadi va bevosita inson ehtiyojlarini qondirish hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga xizmat qiladi.

Turizm kreativ iqtisodiyotning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida qaraladi (1-rasm). Madaniy meros ob'ektlari, festivallar, an'anaviy hunarmandchilik, gastronomiya kabi yo'nalishlar kreativ turistik mahsulotlarni shakllantirish imkonini beradi. Bu esa nafaqat mahalliy iqtisodiyotni rivojlantiradi, balki milliy brendni ham shakllantiradi (1-rasm).



1 -rasm. Kreativ turizmning integratsion imkoniyatlari¹⁴

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativ iqtisodiyot va turizm o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, innovatsion yondashuvlar qo'llanilganda yuqori iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi. Ushbu sohalarda milliy strategik ustuvor yo'nalishlarni belgilash, kadrlar salohiyatini rivojlantirish hamda zamonaviy infratuzilmani takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Kreativ turizm — an'anaviy ekskursiyalardan farqli ravishda, turistlarning faol ishtirokiga, shaxsiy tajriba orttirishiga asoslangan turizm turi hisoblanadi. Bunda turistlar passiv kuzatuvchi emas, balki jarayonning faol ishtirokchisi sifatida qatnashadi. Masalan, Rishtonda keramika yasash bo'yicha mahorat darslarida ishtirok etish, Samarqandda palov tayyorlash yoki non yopish jarayonini o'rganish, Qo'qonda zardo'zlik san'ati bo'yicha amaliy mashg'ulotlarda qatnashish kabi tajribalar turistlarga yanada chuqur taassurot qoldiradi.

Kreativ iqtisodiyot asosida turizmni rivojlantirish natijasida turistlarning madaniy tajribasi boyiydi, mahalliy hunarmandlar uchun qo'shimcha daromad imkoniyatlari yaratiladi hamda turizm xizmatlarining diversifikatsiyasi ta'minlanadi. Ushbu yondashuv hududiy iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini mustahkamlashga ham xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 2-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 02.12.2016-yildagi PF-4861-son. <https://www.lex.uz/docs/-3077025?otherlang=1>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-avgustdagi "O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 13.08.2019-yildagi PF-5781-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4474527?ONDATE=20.01.2024&ONDATE2=20.06.2023&action=compare>

12. Safarov B.Sh. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish: iqt. fan. nomz. diss. - 2011. - 21 b.

13. Alimova M.T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendentsiyalari (Samarqand viloyati misolida): iqt. fan. dokt. diss. 2017.

14. Muallif tadqiqotlari asosida tayyorlandi.



3. Tuxliyev I. S., Po'latov M. E., Berdimurodov A. Sh. Turizm sohasining zamonaviy atamallari izohli lug'ati. Samarqand, 2019-y.
4. Tuxliyev I. S., Raximova R. M. (2023). Guidelines for the effective use of the "Travel Around Uzbekistan" program in the development of local tourism. International Journal of Social Science & Interdisciplinary Research, ISSN: 2277-3630, Impact factor: 8.036, 12(07), 11–15.
5. Howkins, J. (2001). The Creative Economy: How People Make Money from Ideas. Penguin.
6. Florida, R. (2002). The Rise of the Creative Class. Basic Books.
7. UNCTAD. (2008, 2010). Creative Economy Reports.
8. Новикова С. К. Креативная экономика как драйвер роста: мировой и российский опыт. Новые технологии, 2019, 2(48).
9. Степанов А. А. и др. Креативная экономика: сущность и проблемы развития. Текст научной статьи по специальности «Экономика и бизнес», 2023 г.
10. O'zbekiston Respublikasi Qonuni № O'RQ-970 (03.10.2024). <https://lex.uz/uz/docs/-7129258>
11. O'zbekiston Respublikasining "Turizm to'g'risida"gi Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 13.08.2019 yildagi PF-5781-son <https://lex.uz/uz/docs/-4474527?ONDATE=20.01.2024&ONDATE2=20.06.2023&action=compare>
12. Кабушкин Н. И. Менеджмент туризма. Учебник. 4-е изд., стереотип. Минск: Новое знание, 2004. – 409 с.
13. Tuxliyev I. S. va boshq. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2021-y.
14. Turaev B. X. Организационно-экономические механизмы регионального туризма. Т.: Фан АН РУз, 2009. – 7-bet.
15. Safarov B. Sh. Mintaqaviy turizm xizmat bozorining iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish. Iqt. fan. nomz. diss., 2011. – 21 b.
16. Alimova M. T. Hududiy turizm bozorining rivojlanish xususiyatlari va tendensiyalari (Samarqand viloyati misolida). Iqt. fan. dokt. diss., 2017.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>